

9-SINF TARBIYA. ChSB - 1. Demo variant

Sana: _____ **Sinf** _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. "Vatan" atamasi qanday ma'noni anglatadi?(B-2 ball)

- A) tug'ilgan makon, ona yurt
- B) mo'jiza, o'zgarish
- C) xalq hokimiyati
- D) oliy hokimiyat

2. Soyasida o'tirmasligini, mevasini yemasligini bilsa ham, daraxt ekan inson, hech bo'lmasa nimani tushuna boshlaydi? (B-2 ball)

- A) Hayot go'zalligini B) Tabiatning go'zalligini
- C) O'zining kelajagini D) Hayotning mazmunini

3. Insonning jismoniy ehtiyojlariga nimalar kiradi? (B-2 ball)

- A) jismonan va ruhan o'zini xavfsiz his qilish
- B) chiroyli va tartibli hayot kechirish
- C) qiziquvchanlik, o'rganish D) toza havo, suv, uyqu

4. Fuqarolarning xalqaro ahamiyatga ega masalalar bilan bog'liq faol harakatlari qanday nomlanadi?(B-2 ball)

- A) Mahalliy darajadagi faollik B) Xalqaro darajadagi faollik
- C) Hududiy darajadagi faollik D) Respublika darajadagi faollik

5. Otaning oiladagi vazifalarini toping.(Q-2,8 ball)

- 1) Farzandlariga bee'tibor bo'lish
 - 2) Oilasiga g'amxo'rlik qilish
 - 3) Bolalariga zug'um o'tkazish
 - 4) Oilani moddiy ta'minlash
- A) 2, 4 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 1, 4

6. Vaqtni to'g'ri taqsimlash sirlarini toping.(Q-2,8ball)

- 1) foydali odatlarni rivojlantirish;
 - 2) tongni jismoniy mashq bilan qarshi olish;
 - 3) hech kim bilan maslahatlashmaslik;
 - 4) vazifani to'g'ri belgilash;
 - 5) kunni eng muhim vazifalar bilan boshlash.
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5

7. Azizbek har tong erta uygʻonadi, yaqinlari bilan birga badan tarbiya qiladi. Shundan soʻng ular ertalabki nonushtani kundalik qiladigan ishlar haqida biroz gaplashib reja tuzib olishadi. Azizbekda pulni toʻgʻri sarflash koʻnikmasi yaxshi shakllanib borayotgani uchun u kelajakda tadbirkor boʻlishni rejalashtiryapti. Azizbekning harakatlariga baho bering, unda qanday odatlar rivojlanganligini aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) Foydali odatlar B) Zararli odatlar
C) Maqsadda adashish odati D) Oʻzgalar fikriga yondashish

8. Umida shifokor boʻlib ishlaydi. U har doim bemorlarni davolashdan oldin ularning kundalik turmush tarzi bilan tanishadi, muammoni yaqindan oʻrganib, kasallikning kelib chiqish sabablarini aniqlaydi. Shundan keyingina kasallikni bartaraf etish boʻyicha kompleks tavsiya beradi. Umidada qanday koʻnikma yaxshi rivojlangan? (Q-2,8ball)

- A) kasallikni kech aniqlash B) muammoga keng qamrovli yechim topish
C) ehtimoliy nazariyasi D) kasallikni erta aniqlash

9. Quyidagi koʻnikmalarni vaziyatlar bilan moslashtiring. (Q-2,8ball)

1. Odamlarni boshqarish koʻnikmasi; 2. Keng qamrovli ijodiy fikrlash.	a) Azizbek har qanday narsaga kreativ yondashib, ijobiy yechim topishga harakat qiladi; b) Umida har doim oʻz xodimlarining ishlashlariga xalaqit qilmaslikka harakat qiladi; c) Saidra har narsaga tanqidiy fikr orqali yondashadi.
--	--

- A) 1-a, 2-b B) 1-c, 2-b C) 1-c, 2-a D) 1-b, 2-a

10. Ota-bola sayrga chiqishdi. qoʻshni bolaning kuchukchasi bolaga qarab yugurib, u bilan oʻynamoqchi boʻldi. Bola shoshgancha otasiga talpindi. Ota uni koʻtarib oldi. Bola oʻzini xavfsiz sezdi. Ushbu vaziyatda bola nimaga ehtiyoj sezdi? (Q-2,8ball)

- A) Xavfsizlik va himoyaga B) Ota mehriga C) hayvonlarga D) Ona mehriga

11. Dilfuza gʻildirakning yaratilish tarixini oʻrganib chiqdi va kelajakda “aqlli gʻildirak” yaratishni oʻylab qoldi. “Aqlli gʻildiraklar” inson hayotiga qanday yengilliklar olib kirishini rejasini tuzdi va u buni uddaladi.

Dilfuzaning bu harakatiga nima deb baho berish mumkin? (Q-2,8ball)

- A) Hissiy bilish B) Ehtiyoj
C) Odamlarni boshqarish D) Innovatsiya

12. Tanqidiy fikrlaydigan odamlarga xos boʻlgan xususiyatlarni aniqlang. (Q-2,8ball)

- 1) Dalillardan oqilona va xolis foydalanadi;
2) Mantiqsiz xulosalarni yaroqsizlaridan farqlay oladi;

- 3) Tortishuvlar vaqtida qizishib ketadi;
4) Fikrlarida izchillik bo'lmaydi.
A)1, 2 B)1, 4 C)2, 3 D)2, 4

13. Umida har doim muammoni hal qilish uchun ma'lumotlardan aniq va oqilona foydalana oladi, ko'proq savol berish orqali qo'shimcha ma'lumotlar topishga harakat qiladi? Umidada qanday ko'nikma yaxshi rivojlangan? (Q-2,8ball)

- A) Ijodiy yondashuv B) Kreativ fikrlash
C) Salbiy fikrlash D) Tanqidiy fikrlash

14. Yozgi ta'til boshlanishi bilan mahallaning bolalari ko'chalarni qiy-chuv qilishib yuborishadi. Ko'pchiligi to'p tepib, futbol o'ynashadi. Ularni ko'rgan Saida mahalla bolalariga ingliz tilini o'rgatish bo'yicha bepul to'garak tashkil qildi. Hamma bolalar Saidaning uyiga shoshib borar, ular bir birlari bilan o'rgangan so'zlarini takrorlaydigan bo'lishdi. Saidaning ushbu harakatlarida nimani sezish mumkin? (Q-2,8ball)

- A) Bekorchi bolalarni jazolashni B) Hammaga o'zini ko'z-ko'z qilishni
C) Bolalarning qiziqishlarini poymol qilishni D) Yaxshilik qilish, o'zidan yaxshi nom qoldirish

15. Hech o'ylab ko'rganmisiz, davlat rivojlanishida eng muhim omil nima? (M-4 ball)

- A) yetakchilik, o'qib-o'rganish, samaradorlik, mashg'ulot, tadqiqot, mahorat, ish o'rni, salohiyat;
B) O'qib-o'rganish, chet davlatlarga sayohat qilish;
C) Tadqiqotlarni olib borib chet davlatlarda ishlash;
D) Ko'p zavod fabrikalar qurib hamma narsani arzon qilib qo'yish, ularni ichki bozorga sotmasdan boshqa davlatlarga sotish.